

100. Tenglik va tengsizliklar

Yondosh mavzu:
madaniyat.

To'g'ri chiziqlar, kesmalar,
nurlar.



1. Bu yozuvlar orasidan to'g'ri tengliklarni toping. Bu harflardan qanday so'z yasash mumkin?

A $27 \cdot 9 = 243$

K $35 \cdot 8 = 2\,440$

P $13 \cdot 7 = 721$

S $505 + 170 = 675$

M $451 + 129 = 470$

R $270 : 5 = 54$

I $800 - 124 = 786$

Q $920 : 2 = 460$

K $199 + 199 = 397$

2. Bu yerdagi yozuvlar orasidan ifoda, tenglik, tengsizlik va tenglamani toping. Noma'lum sonning qiymati qanday bo'lganda tenglama yoki tengsizlik to'g'ri bo'ladi?

$$x + 34$$

$$17 - n = 9$$

$$b < 5$$

$$16 - 9 = 7$$

$$6 \cdot 5 = 30$$

$$2 \cdot 5 \cdot 10$$

$$m : 4 = 48$$

$$x \cdot y + z$$



$x < 7$ tengsizlik “iks yettidan kichik” deb o'qiladi va
 $x = 1; 2; 3; 4; 5; 6$
bo'lganda to'g'ri bo'ladi.

$x \leq 7$ tengsizlik “iks yettidan kichik yoki teng” deb o'qiladi va
 $x = 1; 2; 3; 4; 5; 6; 7$
bo'lganda to'g'ri bo'ladi.

3. Har bir tengsizlik uchun koordinata nurini yasab, unda bu tengsizlikning barcha yechimlarini belgilang.

$$b < 6$$

$$x < 1$$

$$y \leq 5$$



4. Tengsizlik ko'inishida yozing. Bu tengsizliklarning to'g'riligini tekshirib ko'ring.

- a) 56 va 5 sonlari ko'paytmasi 200 dan kichik.
- b) 1230 va 1500 sonlari yig'indisi 2000 dan katta.
- d) 6700 va 2300 sonlari ayirmasi 4000 dan kichik.
- e) 345 va 5 sonlari bo'linmasi 60 dan katta.



5. Raqs zali bo'yi a , eni b bo'lgan to'g'ri to'rtburchak shakliga ega. Quyidagi ifodalar qanday savollarga javob bo'ladi?

$$a \cdot 2 + b \cdot 2; \quad a \cdot b?$$

Agar $a = 7$ m, $b = 5$ m bo'lsa, bu ifodalarning qiymatini hisoblang.



6. Sxema bo'yicha masala o'ylab toping va uni yeching.



15 min 40 s



3 min 20 s

ko'p



2 marta

kam

?



7. 24 ga qoldiqsiz bo'linadigan barcha sonlarni ayting. 36 soni qanday sonlarga qoldiqsiz bo'linadi?

100. Tenglik va tengsizliklar



8. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim bu misollarni birinchi bo'lib, xatosiz yechsa, o'sha g'olib bo'ladi.



$$\begin{array}{c} 235 + 179 + 265 \\ \downarrow \\ (187 + 195) - 95 \\ \downarrow \\ 689 - (38 + 189) \\ \downarrow \\ 429 - 154 - 129 \\ \downarrow \\ 25 \cdot 367 \cdot 4 \end{array}$$

$$\begin{array}{c} 558 + 126 + 142 \\ \downarrow \\ (237 + 167) - 37 \\ \downarrow \\ 541 - (26 + 141) \\ \downarrow \\ 382 - 195 - 182 \\ \downarrow \\ 4 \cdot 298 \cdot 25 \end{array}$$



9. Tengsizlikning o'ng tomonini hisoblang. Koordinata nurida tengsizlik to'g'ri bo'ladigan barcha nuqtalarni belgilang.

$$x < 415 \cdot 2 : 10 - 3 \cdot (999 - 826 - 147)$$



10. Raqs tanlovining barcha qatnashchilariga 10 dan 99 gacha bo'lgan nomerlar berildi. Qizlarga 2 ga, 5 ga yoki 10 ga bo'linadigan nomerlar tegdi, qolgan barcha nomerlar o'g'il bolalarga berildi. Tanlovda necha nafar qiz bola qatnashgan?



11. Ifodalarni ikkita ustunga: chap tomondagi ustunga barcha to'g'ri tengsizliklarni, o'ng tomondagi ustunga esa barcha to'g'ri tengliklarni yozing.

$$561 + 119 = 680$$

$$982 - 758 = 222$$

$$600 - 134 < 450$$

$$28 \cdot 29 > 800$$

$$6\,188 : 4 = 1\,547$$

$$32 \cdot 87 > 2\,700$$

$$50\,000 : 100 = 500$$

$$22 \cdot 22 < 1\,000$$

$$1\,000 - 448 < 500$$



12. Tikuvchi raqs ansambli uchun ko'ylak tikyapti. 15 ta ko'ylakka 51 metr to'r tikildi. Qolgan 6 ta ko'ylakka yana qancha to'r kerak?